



IN PROMOTING THE IDEA OF A NEW UZBEKISTAN THE IMPORTANCE OF HISTORY

Shermukhammat Eshbekovich Ernazarov

Associate Professor, National University of Uzbekistan

E-mail: shernazarov@mail.ru

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: strategy of new Uzbekistan, third renaissance, national idea, globalization, national ideology, spirituality.

Received: 24.11.25

Accepted: 25.11.25

Published: 26.11.25

Abstract: This article analyzes the main idea of the strategy of New Uzbekistan at the current stage of the country's development, that is, the great goal from national revival to national uplift, the main task of the idea of national uplift, the main features inherent in the new stage of national development, the promotion of the strategy of New Uzbekistan, its theoretical and historical significance.

YANGI O'ZBEKISTON G'OYASI TARG'IBOTIDA TARIXNING AHAMIYATI

Shermuxammat Eshbekovich Ernazarov

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti

E-mail: shernazarov@mail.ru

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: yangi O'zbekiston strategiyasi, uchinchi Renessans, milliy g'oya, globallashuv, milliy mafkura, ma'naviyat.

Annatatsiya: ushbu maqolada O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida Yangi O'zbekiston strategiyasi, ya'ni milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari degan ulug' maqsad bosh g'oya sifatida maydonga chiqayotganligi, Milliy yuksalish g'oyasining asosiy vazifasi, milliy taraqqiyotning yangi bosqichiga xos asosiy xususiyatlar, Yangi O'zbekiston strategiyasining targ'iboti, uning nazariy va tarixiy ahamiyati tahlil qilingan.

В ПРОДВИЖЕНИИ ИДЕИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА ВАЖНОСТЬ ИСТОРИИ

Шермухаммат Эшбекович Эрнazarov

Доцент Национального университета Узбекистана

www.supportscience.uz/index.php/ojss

E-mail: shernazarov@mail.ru

Taashkent, Uzbekistan

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: стратегия нового Узбекистана, третье возрождение, национальная идея, глобализация, национальная идеология, духовность.

Аннотация: В данной статье анализируются главные идеи стратегии Новой Узбекистана на современном этапе развития страны, то есть великая цель от национального возрождения к национальному подъему, основная задача идеи национального подъема, основные черты, присущие новому этапу национального развития, пропаганда стратегии Новой Узбекистана, ее теоретическое и историческое значение.

Kirish. O'zbekiston Respublikasining siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotini tubdan yangilash, "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasini real voqelikka aylantirish borasida salmoqli yutuqlar qo'lga kiritilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim" [1].

Ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining mazmun-mundarijasini tubdan yaxshilash maqsadida qabul qilgan hujjatlarda milliy g'oyani mamlakatda yashayotgan barcha millat va elatlar, ijtimoiy toifa vakillari o'rtasida keng targ'ib etish, bunyodkorlik ruhini yalpi ijtimoiy harakatga aylantirish, ertangi kunga ishonch tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratildi [2]. Shuningdek, "Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish; oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash" [3] belgilandi.

Shuningdek, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosida jamiyatda uzluksiz ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning strategik yo'nalishlari, ta'sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish; ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik muammolarni bartaraf etishga qaratilgan maqsadli va manzilli targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirishga doir tavsiyalar hamda aholining mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga yo'naltirilgan innovatsion metodlarni yaratish, ilmiy-amaliy dasturlarni amaliyotga joriy etish mexanizmini ishlab chiqish belgilab qo'yildi [4].

Mavzuga oid manba va adabiyotlar tahlili. Xalqimizning milliy madaniyati o'zining qadimiyligi, boyligi bilan alohida ajralib turadi. Markaziy Osiyo tarixida aql-idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilim, donlikni o'zida mujassam etgan allomalarning ko'plab asarlari bo'lgan. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Al Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Bobur va boshqa ko'plab buyuk ajdodlarimiz milliy madaniyatni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdilar, xalqning milliy iftixori bo'lib qoldilar. Ularning asarlari, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan buyuk hissasi hozirgi kunda butun dunyoga ma'lum.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev rahbarligida ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasidagi O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirishga oid konseptual g'oyalar va asarlari mazkur tadqiqotga ilmiy-metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov davlat rahbarlari orasida birinchilardan bo'lib anglagan holda mamlakat taraqqiyoti va barqarorligini ta'minlashning ma'naviy-ruhiy tayanchi bo'lgan milliy g'oya konsepsiyasini ishlab chiqdi va asarlarida ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berdi. Jamiyat taraqqiyoti va barqarorlikka erishishda milliy g'oyaning tutgan o'rni, uning tarixi va targ'iboti tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilmoqda. Yangi O'zbekiston g'oyasi - milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari g'oyasi yangi va ko'pqirrali tadqiqotlarni talab qiladi.

Tahlil va natijalar. Davlat mustaqilligi va milliy o'zlikni anglashning mohiyati shundan iboratki, bu huquqiy asosda milliy mustaqil davlatchilikning o'rnatilishi, xalqning milliy ongini yuksaltirish jarayonini intensivlashtirish qiladi va xalqning o'zligini anglashining ko'rinishi va yuksalishi jarayonini tezlashtirib, kishilarni yagona tarixiy taqdir va ma'naviy yaxlitlik negizida birlashtiradi. Milliy g'oyani o'rganish orqali inson turli xil g'oyaviy ta'sirlarning maqsad va muddaolarini bir-biridan farqlay oladi.

Fuqarolarda, xususan yoshlarning tarixiy xotirasi, milliy o'zligini anglashi milliy-ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan sog'lom muhitni shakllantiradi va uni hurmat qilish ruhida tarbiyalaydi. Shuningdek, "O'zbekistonda 2021-2030 yillarda tarix fanini rivojlantirish konsepsiyasi"da qadim, boy va noyob tarixiy merosimizni milliy va xorijiy darajada targ'ib etishning yangicha va samarali tizimi yaratildi. Chunki, Yangi O'zbekiston g'oyasini amalga oshirishda va uning targ'ibotida tarixiy bilimlarning ahamiyati kattadir.

Hozirgi paytda dunyoda kiber firibgarlik, axloqsizlik va jinoyatning turlari va usullari tobora ko'payib bormoqda. Ularga nisbatan qonunchilikni yanada takomillashtirish, aholining

xolis axborot va xavfsiz internetga bo'lgan huquqlarini yetarli himoya qilish bugungi kun talabi hisoblanadi. Yoshlarning internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirishda milliy mafkurani targ'ib qiluvchi, o'zlikni anglatuvchi, kuchli g'oyaviy, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy, badiiy, sport, harbiy-vatanparvarlik, milliy o'yinlar yo'nalishlarida milliy axborot resurslarini yaratish va rivojlantirish zamon talabi hisoblanadi. Demak, bu ish bilan faqatgina pedagoglar yoki ota-onalar emas, balki mahalla-ko'y, tarbiyachilar, "internet klub"larning xodimlari, bolalar va yoshlarning "Kamalak" va "Yoshlar ittifoqi" kabi tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, xullas, keng jamoatchilik birgalikda shug'ullanishi lozim. Chunki, endilikda yoshlar internetdan faol foydalanuvchi sub'ektlarning aksariyat qismini tashkil etadi, ularning mafkuraviy ongi unda berilayotgan ma'lumot-axborotlar orqali shakllanib boradi. Bu mafkuraviy jarayonni taqiq yo'li bilan to'xtatib bo'lmaydi.

Milliy g'oya va mafkurani xalq qalbi va ongiga singdirish asosan ta'lim va tarbiya yo'nalishida olib boriladi. G'oyaviy ta'lim berish deb, milliy g'oyaning maqsadi, vazifalari, qonun va kategoriyalari, bosh va asosiy g'oyalari, jahonda kechayotgan mafkuraviy kurash, dunyoning mafkuraviy manzarasi va shunga o'xshash boshqa mafkuraviy jarayonlarning borishi haqida yoshlarga bilim berish asosida ularning qalbi va ongiga milliy mafkuraning bosh va asosiy g'oyalarini singdirishga qaratilgan jarayonga aytiladi. G'oyaviy ta'lim: maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi; oliy ta'lim muassasalarida olib boriladi.

G'oyaviy tarbiyalash deb, ularning ongi va tafakkuri tizimida shu yo'nalishdagi dunyoqarashni, falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, axloqiy, badiiy, kasbiy va boshqa tamoyillarni muayyan mafkura asosida maqsadli shakllantirish jarayoniga aytiladi [5]. Mafkuraviy tarbiya esa inson, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat dunyoqarashini shakllantirishga, ularni muayyan maqsadlarni ifoda etadigan g'oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yo'naltirilgan jarayondir. Ular bir-biridan ajralmas qismlardir. G'oyaviy tarbiya mafkuraviy tarbiya orqali zohir bo'ladi. G'oyaviy tarbiya: oila; mahalla; ijtimoiy-ommaviy institutlar; ma'muriy-siyosiy tashkilotlar; mehnat jamoalarida olib boriladi.

Xalq qalbi va ongiga milliy g'oya va mafkurani singdirish - ta'lim-tarbiya va targ'ibot-tashviqot qilish usullari orqali amalga oshiriladi. Ta'lim-tarbiya usulida o'qitishning: ko'rgazmalilik; uzluksizlik; yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash; tarixiy-mantiqiy izchillikni ta'minlash usullaridan keng foydalaniladi. Milliy g'oya targ'iboti, ya'ni g'oyaviy targ'ibot deb milliy g'oyani barcha aholi qatlamlarining orasida yoyishga, ular ongiga singdirishga qaratilgan ishlar, targ'ib ishlariga aytiladi. Milliy g'oya targ'iboti bilan shug'ullanuvchi xodimlarni milliy g'oya targ'ibotchilari deb atashadi. Milliy g'oya tashviqoti,

ya'ni g'oyaviy tashviqot deb ommaga mafkuraviy yoki boshqa jihatdan ta'sir ko'rsatish maqsadida yozma va og'zaki ravishda qilinadigan ishlar, tadbirlarga aytiladi. Targ'ibot-tashviqot ishlari: kengqamrovlik; maqsadga yo'naltirilganlik; ishonchlik, asoslanganlik; ilmiylik asosida olib boriladi [6].

Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarini o'rganish yangi O'zbekistonning taraqqiyot g'oyasi - milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari g'oyasining amaliy jihati hisoblanadi. Milliy yuksalish sari g'oyasini o'rganishning ob'ektiv zarurligi uning mazmun-mohiyatini, asosiy tushuncha va tamoyillarini nazariy-metodologik asoslarini keng jamoatchilikka yetkazish, tushuntirishdan iborat. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarini o'rganishda sotsiologik so'rov, qiyosiy tahlil, baxs-munozara, xozirgi zamonda keng kirib kelayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ineterfaol usullaridan ham foydalaniladi [7].

Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalaridagi yangilanishlar va uning zamon bilan hamnafas bo'lishini, jamiyatdagi demokratik yangilanishlar, globallashuv va mafkuraviy kurashlar sohasidagi o'zgarishlar ham taqazo etadi. Chunki, dunyoda mafkura sohasida yangi texnologiyalarni qo'llab, ko'proq uni «jozibali» bo'lishiga erishish orqali yoshlarni o'ziga jalb etishga, begona qadriyatlarni olib kirishga urinish mavjud. Shuning uchun texnologiyani milliy g'oyani targ'ib etish mahorati, zamonaviy ilmiy-amaliy tafakkur usuli, deyish mumkin. Milliy g'oya targ'ibotining zamonaviy mahorat darajasiga ko'tarish uni hozirgi zamon bilan hamnafasligining ifodasidir.

Milliy g'oya targ'ibotini amalga oshirishda o'ziga xos alohida subektlarning ham o'rni kattadir, ular orqali yangi O'zbekiston mafkurasini fuqarolar qalbi va ongiga singdirish yaxshi samara beradi, bular: ta'lim-tarbiyaning turli shakllari; fan va ilmiy muassasalar; madaniyat va madaniy-ma'rifiy muassasalar; adabiyot va san'at; din, jismoniy tarbiya va sport; urf-odat, marosim va bayramlar; oila; mahalla; mehnat jamoalari; siyosiy partiyalar; nodavlat-notijorat tashkilotlar [8].

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining «Milliy g'oya ilmiy-amaliy markazi» va «Milliy g'oya targ'ibot markazi» bu boradagi amaliy ishlarni muvofiqlashtirib borishi, shuningdek, Oila ilmiy-amaliy markazi, Faylasuflar jamiyati, Ijtimoiy fikr jamoatchilik markazi kabi tashkilotlar milliy g'oya maqsadalarini targ'ibot etishda muhim o'ringa ega. Shuningdek, milliy g'oya va milliy mafkurani joriy etishga moddiy, tashkiliy va ma'rifiy jihatdan ko'mak beradigan "Sog'lom avlod", "Kamolot", "Oltin meros", "Amir Temur", «Iste'dod», "Mahalla" jamg'armalari va boshqa jamoat tashkilotlari ham katta imkoniyatlarga ega.

Milliy g'oyani xalq qalbi va ongiga singdirish muayyan texnologiya asosida olib borilganida tadbirlarning ketma-ketligi, miqyosi va me'yori, davomiyligi va tamoyillari singari

jihatlar qamrab olinadi. Ularning muhimligi shunda ko‘rinadiki, masalan, targ‘ibotda me‘yorning buzilishi, milliy mafkura to‘g‘risida me‘yordan ortiq gapiraverish, me‘yorni bilmaslik teskari samara berishi mumkin. Targ‘ibot texnologiyasi milliy g‘oya va milliy mafkura mazmun-moxiyatiga mos bo‘lgan taqdirdagina kutilgan natijaga erishish mumkin.

XXI asr axborot asri, axborot texnologiyalari asri bo‘lib, jadal sur‘atlarda tarqalayotgan informatsiyalar insonning istaklarini, didini o‘zgartirishga, fikriga ta‘sir qilishi mumkin. Bugungi kunda rivojlangan davlatlar qudratli targ‘ibot tizimiga ega bo‘lishga intilmoqda. Masalan, o‘z faoliyatining targ‘ibotiga AQSh hukumati yiliga 2,5 milliard dollar, Fransiya ham o‘z siyosatini aholiga tushuntirish ishlariga yiliga 100 million frank sarflamoqda [9].

Milliy g‘oya targ‘iboti subektlari mamlakatimizda yashaydigan odamlar, jamiyat va davlatning ezgu maqsadlarini, hayotiy manfaatlarini mujassam etadigan tushunchalarni, g‘oyalarni jamoatchilikka yetkazish, unga nisbatan ishonch va e‘tiqodni shakllantirishga, qadriyatga aylantirishga xizmat qiladigan ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-ma‘rifiy institutlar majmuidir. Ular xilma-xil bo‘lib, milliy g‘oyaning targ‘ibotida muhim o‘rin tutadi. Ularni maqsadi va vazifalarini amalga oshirish uchun milliy g‘oyaning asosiy tushuncha va tamoyillariga tayanish ma‘naviy-mafkuraviy ishlarning samaradorligini ta‘minlashda ustuvor ahamiyatga ega [10].

Milliy g‘oya targ‘ibotida hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligiga erishish omillari: 1) xalq ma‘naviyatining tiklanishi; 2) boy tarixiy merosimizni chuqur o‘rganish; 3) an‘ana va urf-odatlarini saqlash; 4) fan va ta‘limning rivojlanishi; 5) jamiyat tafakkurining o‘zgarishi va yuksalishi bilan bog‘liq [11].

O‘zbekistonda yangi hayot, yangi jamiyat poydevorini barpo etishda erkin fuqaro ma‘naviyatini shakllantirish masalasi g‘oyat dolzarb ahamiyatga ega. Milliy g‘oya targ‘iboti nuqtai nazaridan yondashganda «erkin fuqaro ma‘naviyati» muhim. Chunki erkin fuqaro: 1) mustaqillikni chuqur anglaydi; 2) mustaqillik tafakkuriga ega; 3) milliy-madaniy meros va qadriyatlarni hurmat qiladi, asrab-avaylash to‘g‘risida qayg‘ura oladi; 4) demokratik qadriyatlar va tamoyillarni yuksak baholaydi; 5) insonga oliy qadriyat sifatida qaraydi; 6) erkinlik, tafakkur erkinligi va ma‘suliyatini his etadi; 7) milliy g‘oya negizlariga ya‘ni, milliy-madaniy meros va qadriyatlarga, umuminsoniy tamoyillarga sodiq, yuksak ma‘naviyatga ega, vatanparvar, fidoiy insondir [12].

Barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning samaradorligi avvalo xalq ma‘naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosning chuqur o‘rganilishi, an‘ana va urf-odatlarining saqlanishi, madaniyat va san‘at, fan va ta‘lim rivoji eng muhimi, jamiyat tafakkurining o‘zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog‘liqdir.

Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari jamiyatning taraqqiyotini mustahkamlashga xizmat qiladigan, shu zaminda yashayotgan barcha xalqlarning manfaatlarini o'zida mujassam eta olishi bilan muhim. Insoniyat jamiyati paydo bo'libdiki, ularning maqsadlari mavjud bo'lgan va mushtarak ezgu g'oyaga birlashishgan. Hatto, mana shu birlashuv ularning himoyalaniish vositasi sifatida talqin qilingan. Milliy g'oya umuminsoniy tamoyillar va milliy an'analar, tarix, qadriyatlar uyg'unligiga asoslanadi.

Aholi va yoshlar ong va dunyoqarashiga milliy g'oyani singdirishda zamonaviy siyosiy texnologiyalar, ayniqsa, jamoatchilik bilan aloqalar "Public relations" (PR) texnologiyalarini qo'llash muhim va dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Zamonaviy targ'ibot texnologiyalaridan foydalanishda hozirgi dunyoning siyosiy-mafkuraviy jarayonlarini e'tiborga olish, globallashuvning murakkab jihatlariga e'tibor qaratish, siyosiy voqealarga tarixiy nuqtai nazardan ongi munosabatda bo'lish milliy g'oya targ'ibotida samarali vositalar hisoblanadi. Chunki tarixda yot g'oyalarga qarshi kurashda ma'rifiy usullardan unumli foydalanilganligini ulug' mutafakkirlar faoliyatida kuzatish mumkin. Shu bilan birga "aholining Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish" [13] lozim.

Xalq bilan muloqot qilish shunchalik uchrashuvdan, hol-ahvol so'rashuvdan iborat bo'lmasdan, ilmiy-amaliy asosda olib borini taqozo etadi. Buning uchun esa muloqot qilish qonun-qoidalarini, ayniqsa, metodikasini yaxshi bilish kerak bo'ladi. Milliy g'oyaning asosiy jihatlaridan bo'lmish milliy manfaatlarga sodiqlik va bu masalada murosasiz bo'lish konservatizm ham, millatchilik ham emas. Ayniqsa globallashuv jarayonida milliy qadriyatlarni, jamiyat barqarorligi va xavfsizligini har tomonlama ta'minlash siyosati milliy g'oyaning muhim jihati bo'lsa, ikkinchi tomondan, u "tarixiy-ijtimoiy, siyosiy va madaniy yaxlit tizim sifatida davlatning eng muhim tayanchi sanaladi. Shunday ekan, milliy g'oya bilan millatchilikni "qorishtirish" yoki davlatchilik barpo etishni ro'kach qilib, tub millatda boshqa qardosh xalqlarga nisbatan hurmatsizlik hissini uyg'otish ayrim joylarda bugungi kun talablariga to'g'ri kelmaydi. "Operativ sotsiologiyaga murojaat qiladigan bo'lsak zamondoshlarimiz qalbida millatchilik tendensiyasini kuzatish mumkin" [14].

Millatchilik, o'z nasli-nasabini hammadan afzal deb bilish bilan bog'liq g'oyalarni oshkora targ'ib qilish ko'pgina mamlakatlarning kundalik yumushiga aylanib qoldi [15]. Bu jihatdan O'zbekistonda millatlararo hamjihatlik va dinlararo bag'rikenglik siyosati boshqa davlatlar uchun o'rnak bo'lishi tayin. Mamlakatda millatlararo shubha va hadiksirash emas, aksincha barcha etnik hamda konfessional guruhlarining milliy g'oya tashuvchi o'zbeklar atrofida jipslashish holatini ko'rish mumkin. Ushbu dolzarb va muhim tendensiyaning zahirida

o'zbeklarga xos bag'rikenglik, boshqa xalqlarning qalbida ehtirom tuyg'usini shakllantirish yotadi. Holbuki, o'zbeklar amaliyotida millatni ezozlash har doim "madaniy hodisa" tarzida namoyon bo'lgan. Milliylik madaniyat ravnaqiga, uning dunyo madaniy jarayonida munosib o'rin egallashiga ko'maklashgan.

O'zbeklikni, o'zbekchilikni chuqur anglash hech qachon siyosiylashmagan, ya'ni siyosiy dastur tarzida boshqalarga qarshi qo'yilmagan. Shu bois, uning "siyosiy-g'oyaviy oqim" darajasiga chiqqan millatchilikka mutlaqo aloqasi yo'q" [16]. O'zbekistonda "milliylik madaniy tizim tarzida talqin qilinib kelingan" [17]. Aynan shu tarzda u jamiyat ravnaqi, manfaatlari, xavfsizligini ta'minlashga yordam bergan. Chunki, milliy tuyg'u millatga, jamiyatga xizmat qilishi uchun siyosiylashuvi shart emas.

Xulosa va takliflar. "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik!" g'oyasini o'zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy hamda targ'ibot-tashviqot tadbirlari Dasturida tarixni, buyuk ajdodlarning boy ilmiy va ma'naviy merosini o'rganish va keng targ'ib qilish, O'zbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini barpo etish borasida belgilab berilgan uzoq muddatli strategik vazifalar doirasida milliy g'oyani rivojlantirish vazifalari belgilandi. Bunda milliy g'oya targ'iboti siyosiy tarbiya, mehnat tarbiyasi va axloqiy tarbiya bilan uyg'unlikda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Ma'furaviy faoliyat ana shunday yaxlit tizim shakliga keltirilgandagina mukammallik kasb etadi.

Barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning samaradorligi avvalo xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganilishi, an'ana va urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji, eng muhimi, jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksalishi bilan bog'liqdir.

Milliy g'oyani xalq ongi va qalbiga singdirish samaradorligini ko'tarish uchun quyidagilarga e'tibor berish zarur: o'tkazilayotgan tadbirlarni kampaniyaga aylantirmaslik; o'qib berish usulidan voz kechish; tadbirlarni «majburiyat»ga aylantirmaslik; odamlar bilan ochiq-oydin va yuzma-yuz muloqatdan qochmaslik. Shuningdek, mafkura targ'ibotida: vazifalarni nazarda tutgan holda bevosita tashkiliy chora va tadbirlarni ko'rish; ma'naviyat va ma'rifat ishlarini olib boruvchi kadrlarni tanlash va qayta tayyorlash, ularning faoliyati uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish; zarur bo'lgan moddiy-texnika vositalari bazasini yaratish; ommaviy axborot vositalarini aniq maqsadga yo'naltirilgan holda jalb qilish; ma'naviy va ma'rifiy ishlarning samarali tajribalarini keng yoyish kabi omillarga ham e'tibor qaratish lozim. Milli g'oya targ'iboti «bilim – ishonch – faollik» modeli asosida amalga oshirilishi lozim. Ya'ni, bilimlarning ong orqali o'tib, maslak, e'tiqodga aylanishi va amaliyotga tatbiq etilishi - mafkuraviy ishlarining mazmunini tashkil etadi.

Foydalanilgan adbiyotlar ro'yhati:

1. О'збекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 29 декабр куни Олий Мажлисга навбатдаги Мурожаатномаси // Янги О'збекистон, 2020 йил 30 декабр.
2. О'збекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 28 июлдаги "Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришни янги босқичга ko'тариш to'g'risida"ги PQ-3160 Қарори // Халқ со'зи, 2017 йил 29 июл.
3. О'збекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги "Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари to'g'risida"ги қарори // "Янги О'збекистон", 2021 йил 27 март.
4. О'збекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 3 майдаги PQ-4307-сонли "Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш bo'йича qo'shimcha чора-тадбирлар to'g'risida"ги қарори. "О'збекистон Республикаси қонун ҳужжатлари to'плами", 2019 йил 6 май, 18-сон, 353-модда.
5. О'збек тилининг изоҳли луг'ати. Ж.З. -Т. -2006. -Б.678.
6. Миллий го'я - тараккиёт стратегияси: монография / Ж.Я.Яхшиликoв, Н.Э.Мухаммадиев. -Тошкент: «Фан», 2017. –Б. 324.
7. Миллий g'оя тарг'иботи технологиялари. О'қув qo'лланма. / Масъул муҳаррир: проф. И.Эргашев. -Тошкент. 2016. –Б. 26.
8. Миллий го'я - тараккиёт стратегияси: монография / Ж.Я.Яхшиликoв, Н.Э.Мухаммадиев. -Тошкент: «Фан», 2017. –Б. 328.
9. David A. Deese. Globalization: Causes and Effects. –Boston College, USA Ashgate, 2012.
10. Намидов А. Янги педагогик технологиялар. -Т.: 2004. –Б. 34.
11. Миллий го'я - тараккиёт стратегияси: монография / Ж.Я.Яхшиликoв, Н.Э.Мухаммадиев. -Тошкент: «Фан», 2017. –Б. 342.
12. Миллий g'оя ва О'збекистоннинг тараqqиёт стратегияси. Қ.Назаров ва бошq. –Т.: "О'збекистон файласуфлари миллий жамияти", 2019. –Б. 21.
13. О'збекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги "Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари to'g'risida"ги қарори // "Янги О'збекистон", 2021 йил 27 март.
14. Соловей В. Рождения natsii. Исторический смысл нового natsionalизма // Свободная мысль. – №6, 2005. –С. 17.

15. Коротаяева В. Теории национализма в зарубежных социальных науках. –М., 1999. С. 10.
16. Соловей В. Рождения нации. Исторический смысл нового национализма // Свободная мысль - XXI. – №6, 2005. –С. 7.
17. Андерсон Б. Воображаемое сообщество. Размышления об истоках и распространении национализма. –М., 2001. С. 100.